

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi



“20” 08 2023 yil

“Biznes va boshqaruv” ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo‘yiladigan

MALAKA TALABLARI

I. Umumiy qoidalar

Qayta tayyorlash va malaka oshirish sifati tinglovchilar tayyorgarligining zarur va yetarli darajasi, ularning bilimlari va amaliy mahoratlarini pedagog kadrlarga qo‘yiladigan malaka talablariga muvofiqligi bilan belgilanadi.

“Biznes va boshqaruv” ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan malaka talablari tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha o‘quv rejalarini va dasturlarini, shuningdek, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonini, ta’lim sifatini nazorat qilish va baholash tartibi va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

II. Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining tayyorgarligi va kompetentligiga qo‘yiladigan umumiy talablar

Pedagog kadrlar quyidagi yo‘nalishlarda bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim:

- oliy ta’lim davlat ta’lim talabi, Kadrlar tayyorlash tegishli ta’lim sohasi bo‘yicha davlat ta’lim talabi, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, shuningdek, o‘qitilayotgan fan bo‘yicha o‘quv dasturi mohiyatini bilish va tushuna olish;
- oliy ta’lim to‘g‘risidagi normativ-huquqiy va direktiv hujjatlarni bilish;
- bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlashning zamonaviy metodlarini bilish va amalda qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- o‘quv rejalarini va o‘quv fanlari dasturlarini takomillashtirish tamoyillari haqida ma’lumotga ega bo‘lish;
- o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish metodlarini o‘zlashtirish;
- o‘quv fanlari mazmuni va ularni o‘qitishdagi izchillik asoslarini bilish;

- o'quv mashg'ulotlarining har xil turlarini (ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, kurs ishlari loyihalari, malaka bo'yicha amaliy mashg'ulotlar) o'tkazish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- talabalar o'rtasida milliy mustaqillik g'oyalari asosida ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish malakalariga ega bo'lish;
- ta'lif jarayoni qatnashchilari bilan o'zaro munosabatlarda etika normalari va nutq madaniyatiga ega bo'lish;
- chet tillardan bittasida so'zlashuv nutqi asoslarini o'zlashtirish;
- mustaqil ta'lif olish yo'li bilan o'z bilimlarini takomillashtirish metodlarini bilish va amalda qo'llash malakasiga ega bo'lish;
- talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantira olish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- bakalavriat va magistratura ta'lif dasturlarida izchillik va moslashuvchanlikni tashkiliy va metodik ta'minlash ko'nikmasiga ega bo'lish;
- kadrlar buyurtmachilarini va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'quv rejalarini va fanlar dasturlarini shakllantirish malakasiga ega bo'lish;
- talabalarning o'z bilimini mustaqil oshirishini tashkiliy va metodik jihatdan ta'minlash ko'nikmasiga ega bo'lish;
- talabalarning bilim va ko'nikmalarini reyting bo'yicha nazorat qilishni tashkil etish va ilmiy-metodik ta'minlash malakasiga ega bo'lish;
- kadrlar tayyorlash sifatiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni bilish;
- ta'lif, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashni tashkil etish;
- iqtidorli talabalarni qidirib topish, tanlash va ular bilan ishlash metodlarini bilish va amalda qo'llash;
- oliy ta'lifda menejment va marketing asoslarini bilish va amaliy faoliyatga tatbiq etish.

Oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlari quyidagi yo'nalishlarda kompetentlikka ega bo'lishi lozim:

Huquqiy kompetentlik - ta'lifning normativ-huquqiy hujjalarni, qonunchilik normalarini bilish hamda kasbiy faoliyatda samarali foydalana olish, lokal normativ-huquqiy hujjalarni ishlab chiqish, qonunchilik normalari doirasida qarorlar qabul qilish.

Kasbiy kompetentlik – pedagogik faoliyatdagagi real vaziyatlarda uchraydigan kasbiy pedagogik muammo va vazifalarning samarali yechimini ta'minlaydigan metodik usullar, zamonaviy ta'lif texnologiyalari, pedagogik diagnostika (so'rov, individual va guruhiy intervyyu) texnologiyalari, psixologik va pedagogik korreksiya, didaktik vositalarni qo'llay olish va doimiy takomillashtirib borish; ta'lif oluvchilar bilan o'quv mashg'ulotlarini tashkillashtirishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lif va innovatsion texnologiyalarga doir kreativ g'oyalar, ilg'or xorijiy tajribalar, yangi adabiyot, shuningdek, boshqa ma'lumotlarni o'zlashtirish hamda qo'llash.

Informatsion kompetentlik - pedagogning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida shaxsiy va kasbiy faoliyati bilan bog'liq ma'lumot, axborotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish, tanlash, qayta ishslash va zarur axborotlarni uzatish hamda sohaga moslashtirish, mustaqil bilish

faoliyatini doimiy rivojlantirish, masofaviy ta’lim va multimedia texnologiyalari, Internet global tarmog‘idan, elektron ta’lim resurslaridan o‘quv maqsadlarini amalga oshirishda samarali foydalanish.

Kommunikativ kompetentlik - ta’lim jarayonida samarali muloqotni ta’minlaydigan, turli yoshdagagi ta’lim oluvchilar, ota-onalar, hamkasblar, xodimlar bilan muloqot o‘rnatish, insonlar bilan o‘zaro hamkorlikda strategiya, taktika va texnikani shakllantirishni bilish, ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarni amalga oshirishda ularning hamkorlik harakatlarini tashkil etish, o‘z qarashlarini himoya qila olish, notiqlik san’ati, og‘zaki va yozma nutq savodxonligi, taqdimotlarning samarali shakl va metodlarini tanlay olish.

III. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi o‘quv rejasining tasdiqlangan Namunali tarkibidan kelib chiqib oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlariga qo‘yiladigan malaka talablari

III.1. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari.

Pedagog kadrlar:

- Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslariiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlari ularga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni;
- Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi oid normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy usul va vositalarini;
- Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni ijro etish jarayonida amalga oshirilayotgan islohot va yangiliklarni, bu to‘g‘risidagi muhim ma'lumotlarni;
- 2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining davlat va jamiyat hayotini takomillashtirishdagi o‘rni va ahamiyatini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini;
- Davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslarini ***bilishi*** kerak.
- 2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalish va maqsadlarini tahlil etish va baholash;
- Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasining mazmun-mohiyatini tushuntirib berish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishni hisobga olinganligiga e’tibor qaratish;
- Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish sohasidagi muammo va masalalarni tahlil etish;

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga taalluqli bo'lgan tadqiqotlarni aniqlash va tahlil qilish;
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash;
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi bilan bog'liq tegishli amaliyot materiallarini o'rghanish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlar asosida tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari mazmunini sharhlash va amaliyotda qo'llash;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini tahlil etish;
- jamiyatning iqtisodiy negizlarini sharhlash ***ko'nikma va malakalariga*** ega bo'lishi lozim.
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslarini mazmun-mohiyatini yoritib berish;
- Davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslarini mazmun va mohiyatini to'g'ri idrok etish;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarini amaliyotga tatbiq etishga o'rgatish;
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, shuningdek ta'limning boshqa ustuvor sohalari bo'yicha talabalarni fundamental, shuningdek amaliy kasbiy tayyorgarligini ta'minlash;
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi o'quv jarayoniga ilmiy ishlanmalar natijalarini samarali joriy etish, fanni samarali o'qitishga qaratilgan turli metod va usullarini qo'llash ***kompetensiyalairga*** ega bo'lishi lozim.

III.2 Oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari.

Pedagog kadrlar:

- oliy ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiyligi tafsifini;
- normativ-huquqiy xujjalarning turlarini;
- normativ huquqiy xujjalarga qo'yiladigan talablarni;
- ta'lim to'g'risidagi qonun xujjalarni buzganlik uchun javobgarlikni;
- oliy ta'lim sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlarini;
- Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlarini;
- o'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;
- OTMlarning lokal xujjalari (Ustav, Ichki tartib qoidalar)ni;
- meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimiga oid farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim tizimiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlari mazmunini;

- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
- Davlat ta’lim standarti, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablarni, o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini ***bilishi*** kerak.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta’lim tizimiga oid qabul qilingan farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’lim tizimiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkillashtirish;
- Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari ijrosini ta’minalash;
- Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
- o‘quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini amaliyotga tadbiq etish ***ko‘nikma va malakalariga*** ega bo‘lishi lozim.
- O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini mazmun-mohiyatini ochib berish;
- Malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablarni o‘zlashtirish;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta’lim tizimiga oid farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’lim tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta’lim standarti, Malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish ***kompetensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim.

III.3. Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar

Pedagog kadrlar:

- ta’lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;
- pedagogning raqamli kompetentligi va uning tarkibiy tuzilmasini;
- raqamli didaktika va uning asosiy tamoyillarini;
- raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;
- raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;
- raqamli ta’lim muhitida pedagogik dizaynnni;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;

- Internetdagi turli manbalar bilan ishlashda maxsus norma va qoidalarga rioya qilish: mediasavodxonlik, mualliflik huquqi, axborot xavfsizligini;
- raqamli ta’lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;
- ADDIE pedagogik dizayn tushunchasini;
- Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullarini;
- raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan o‘qitish metodlarini;
- raqamli xavfsizlik qoidalari va raqamli etikani;
- raqamli mahsulotlar va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish xususiyatlarini;
- raqamli mahsulotlar va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishda bilim oluvchilarning ehtiyojlarini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlarini **bilishi** kerak.
- multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik materiallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;
- masofiviy ta’lim platformalari uchun video kontent yaratish;
- Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;
- raqamli ta’lim resurslari sifatini baholash;
- an’anaviy va raqamli ta’limda pedagogik dizaynning xususiyatlarini ochib berish;
- onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o‘zlashtirish;
- pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;
- raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish;
- pedagogik faoliyatda bulutli xizmatlardan (Google, H5P, Canva, figma) foydalanish;
- onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etishda vebinar xizmatlari (Zoom, Yandeks, Telemost Google Meet va b.) bilan ishlash;
- ta’limning turli darajalari uchun o‘quv materiallari va raqamli ta’lim resurslarini samarali yaratishni amalga oshirish;
- foydalanish samaradorligi bo‘yicha raqamli ta’lim resurslari va raqamli mahsulotlarni baholash;
- ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi muloqotni tashkil qilish uchun raqamli vositalarni tanlash;
- raqamli texnologiyalar va raqamli ta’lim muhitini shakllantirish va amaliyotda foydalanish;
- masofaviy ta’lim texnologiyalariga xos bo‘lgan ta’lim shakllarini qo‘llash **ko‘nikma va malakalariga** ega bo‘lishi lozim.
- raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o‘quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;
- raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o‘zlashtirish;
- raqamli ta’lim muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish;

- bulutli xizmatlardan foydalanib infografika, videoma’ruza va multimedia vositalarini o‘z ichiga qamrab olgan interaktiv taqdimot yaratish, animatsiya effektlarini o‘rnatish, giperhavolalar yordamida taqdimot namoyishini boshqarish;
- masofiviy ta’lim platformalariga videokontent yaratish: onlayn video muharrirlardan (AdobePremiere Pro, Davici Resolve, FinalCut) foydalangan holda audio va video montaj qilish;
- uzlusiz ta’lim dasturlarini amalga oshirish uchun tegishli malaka darajasiga yo‘naltirilgan raqamli tashkiliy-metodik ta’minotni amalga oshirish;
- raqamli muhitda uzlusiz ta’lim dasturlari asosida o‘quv fanlari, kurslari, modullarini ishlab chiqish va o‘quv faoliyatini tashkil etish;
- uzlusiz ta’lim dasturlarini amalga oshirishni ta’minlaydigan elektron ilmiy va o‘quv-metodik materiallarini ishlab chiqish ***kompetensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim.

III.4. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish

Pedagog kadrlar:

- jahonda oliy ta’lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo‘nalishlarni;
- zamonaviy ta’limning global trendlarini;
- inson kapitalining iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta’limning yoshdagи ahamiyatini;
- oliy ta’limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
- zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko‘p qirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;
- universitetlarning zamonaviy modellari va ularning transformatsiyasini;
- zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
- tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo‘nalishlarini;
- tadbirkorlik universitetining asosiy vazifalarini;
- uch qirrali spiral modeli: innovatsiyalar, kelishuvlar va bilimlar makonini;
- «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini;
- professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini;
- Scopus xalqaro ilmiy bazasida Sifat ko‘rsatkichlarini;
- Scopus, Web of Science yoki yuqori impakt faktorli (IF) jurnallarda maqola chop etishni;
- maqolaning tahririyatda o‘tish protsedurasini ***bilishi*** kerak.
- OTMlarni reyting bo‘yicha ranjirlash;
- jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
- universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;
- tadbirkorlik universitetiga o‘tish uchun zarur bo‘ladigan o‘zgarishlarni aniqlash;

- Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o'tish borasidagi muammolarni aniqlash;
- zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o'zlashtirish;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- universitetlarning zamonaviy modellarini o'rganish;
- OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini oshirish;
- jahon oliy ta'limi rivojlanishidagi umumiylrendlar va strategik yo'nalishlar bo'yicha adabiyotlar sharhini tayyorlash;
- ORCID, JEL Classification (Code) va Mendeley, Grammarly, CorelDraw dasturlaridan foydalanib dissertatsiya ishi paragraflari, ilmiy maqolalar va biznes hisobotlarni IMRAD formatida rasmiylashtirish ***ko'nikma va malakalariga*** ega bo'lishi lozim.
- innovatsion yondashuv va ilmiy tadqiqotlarning metodologik asoslarini o'zlashtirish, ilmiy g'oya, mavzu va gipoteza shakllantirish, reja va dastur tuzish hamda amalga oshirish;
- oliy ta'limning global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingi aniqlash metodikasi bilan tanishish;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- OTM reytingiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
- «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini joriy etish;
- OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijoratlashtirish yo'llarini o'rgatish;
- ishlanmalarga mualliflik guvohnomasini olish va natijalarni tijoratlashtirish ***kompetensiyalariga*** ega bo'lishi lozim.

III.5. Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish Pedagog kadrlar:

- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;
- innovatsion ta'lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llarini;
- kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;
- kasbiy kompetensiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini;
- pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;
- pedagogik texnikani shakllantirish yo'llarini;
- kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo'llarini;

- auditoriyani boshqarish psixologiyasi, tinglovchilarga ta'sir etish va ishontirish usullarini;
 - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kometensiyalarni rivojlantirishga ta'sirini;
 - kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;
 - pedagog nafosati va odobini shakllantirish, rivojlantirish yo'llari hamda unga erishish shart-sharoitlarini;
 - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to'siqlarni yechishda, to'g'ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini ***bilishi*** kerak.
 - pedagoglarning kreativ potensiali tushunchasi va mohiyatini olib berish;
 - pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo'llash;
 - o'qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyatini yoritib berish;
 - tinglovchilar diqqatini o'ziga tortish usullaridan foydalanish;
 - kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo'llarini tahlil etish;
 - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to'siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;
 - innovatsion ta'lim muhitini sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
 - pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hususiyatlarini tahlil etish va baholash;
 - ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
 - o'quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiy do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;
 - tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini o'rganish, tanishish;
 - kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini olib berish ***ko'nikma va malakalariga*** ega bo'lishi lozim.
 - pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyotga tadbiq etish;
 - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashish va xalqaro tajribalardan samarali foydalanish hamda ularning kasbiy kometensiyalarni rivojlantirishga ta'sirini baholash;
 - pedagogik texnikaning asosiy komponentlarildan samarali foydalanish;
 - pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;

- auditoriyani boshqarish psixologiyasi, tinglovchilarga ta'sir etish va ishontirish usullarini qo'llash;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to'siqlarning xilma-xilligi va o'ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlash **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

III.6. Ta'lif sifatini ta'minlashda baholash metodikalari

Pedagog kadrlar:

- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;
- ta'lif sifatiga ta'sir etuvchi omillarni;
- baholash turlari (joriy, oraliq, yakuniy va xalqaro)ni;
- baholash tamoyillari va mezonlarini;
- kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o'ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;
- talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o'quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasini;
- talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o'quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ini nazoratini;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini;
 - baholashning miqdor va sifat tahlilini **bilishi** kerak;
 - talabalarning o'quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;
 - talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o'quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ini nazorat qilish;
 - baholashning miqdor va sifat tahlilini amalgaga oshirish;
 - talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
 - kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o'ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalari ahamiyatini ochib berish;
 - talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o'quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish **ko'nikma va malakalariga** ega bo'lishi lozim.
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash nazariyasini o'zlashtirish;
- ta'lif sifatiga ta'sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o'qituvchilarning salohiyati va o'quv-metodik ta'minot)ni inobatga olish;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yuritish;
- talabalarning ta'lifiy (o'quv predmetlari), tarbiyaviy (ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihibalar) maqsadlarini

yoritib berish;

- baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish ***kompetensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim.

III.7. Maxsus fanlar

Pedagog kadrlar:

- biznes strategiyasi va uning boshqarish mexanizmlarini;
- start up loyihalarni tashkil etishda innovatsion infratuzilmaning ahamiyatini;
- raqamli biznesni rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyasini;
- raqamli biznes tushunchasi, maqsadi va vazifalarini;
- M. Portering uchta asosiy strategiyalarini;
- kompaniyaning logistika strategiyasini;
- xalqaro va mintaqaviy logistikaning tashkiliy jihatlarini;
- O‘zbekiston Respublikasida soliqqa tortish tizimining huquqiy asoslarini;
- soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlarini;
- baholash turlari, tamoyillari va mezonlarini;
- baholashning metodologik asoslarini;
- buxgalteriya hisobinin avtomatlashtirish tizimlarini;
- O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy nazorat tizimida auditning tutgan o‘rnini;
- moliyaviy hisobotni tartibga solishni zamonaviy usullarining o‘ziga hos xususiyatlarini;
- bojxona organlarining tarkibiy tuzilishi, ularning vazifalari, majburiyatlarini;
- jismoniy shaxslar tomonidan tovar va transport vositalarini bojxona chegarasidan olib o‘tish tartiblarini;
- bojxona tizimi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini;
- O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlarida bojxonaga oid xalqaro huquq normalari, ularni qo‘llash uslublari, ularning implementatsiyasi hamda xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligini;
- moliya tizimini isloq qilish yo‘nalishlarini;
- davlat byudjetidan moliyalashtirish mexanizmlarini;
- sug‘urta bozorida yagona ma’lumotlar ba’zasini shakllantirishda Big data texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha ilg‘or tajribalarni;
- rivojlangan mamlakatlarida onlayn sug‘urta xizmatlari ko‘rsatishning rivojlanish tendensiyalari;
- xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi va uning konsepsiylarini;
- dunyo mamlakatlarining xalqaro iqtisodiyot va xalqaro savdodagi ishtirokining asosiy ko‘rsatkichlarini;
- jahon iqtisodiyoti globallashuvining mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini;
- O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotida Osiyo taraqqiyoti bankining o‘rni va iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo‘nalishlarini;
- marketingning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini;
- marketingning funksiyalari, vazifalari va tamoyillarini;

- marketing tadqiqotlari va axborotlar tizimini;
- aqamli marketingingda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniyatlarini;
- savdo korxonalari iste'mol tovarlari bozorida tovar aylanmasini;
- savdo korxonalarining moddiy-texnika bazasini;
- xalqaro savdo tushunchasi va tamoyillarini;
- korporativ boshqaruv tizimi, tamoyillari va unga ta'sir etuvchi omillarini;
- bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining banklar uchun korporativ boshqaruv tamoyillarini;
- YeTTB ning korporativ boshqaruv tizimi bo'yicha asosiy tamoyillarini;
- menejmentning dolzarb muammolarini;
- menejmentda vaziyatli yondashuv, asosiy situatsion nazariyalarni;
- operatsion boshqaruv, kompaniyaning operatsion strategiyasini;
- bank tizimi infratuzulmasi va uning tarkibiy qismlarini;
- bank ishi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda ilg'or AKTni;
- monetar siyosat tushunchasining mazmunini;
- monetar siyosat modellari: majburiy zahiralar modeli, qat'iy qarz zaxiralari modeli, banklararo ta'rif modeli, monetar siyosatning asosini;
- pul-kredit siyosatini ishlab chiqishda ustuvor yo'nalishlarini;
- raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida olib borilayotgan tashkiliy, huquqiy ishlarni;
- raqamli texnologiyalari(sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, blokcheyn)ning iqtisodiyotning barcha sohalarida qo'llanilishini;
- raqamli iqtisodiyot evolyusiyasining milliy modellarini;
- milliy statistika sohasini rivojlantirish yuzasidan olib borilayotgan tizimli ishlarni;
- statistik ko'rsatkichlarni taqdim etishning asosiy usullarini;
- statistik hisobotlarni internet orqali topshirishga mo'ljalangan "e.Stat 4.0" tiziminini;
- statistik ma'lumotlarni innovatsion texnologiyalar yordamida taqdim etish yo'llari: "Katta ma'lumotlar" (Big data), sun'iy intellekt texnologiyalari, bulutli texnologiyalarni;
- statistik modellashtirish xususiyatlari va prognozlashni ***bilishi*** kerak;
- strategik imkoniyatlarni boshqarish;
- blokcheyn texnologiyalari va smart kontraktlarni tahlil qilish;
- Start up loyihalarni tashkil etishda innovatsion infratuzilmaning ahamiyatini ochib berish;
- Venchur fondlarini tahlil etish;
- xalqaro va mintaqaviy logistikaning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash;
- xalqaro va mintaqaviy logistikada qarorlar qabul qilish;
- xalqaro va mintaqaviy logistika faoliyatidagi risklar muammosini bartaraf etish;
- soliq imtiyozlarini qo'llash, soliq hisobotni to'ldirish va elektron taqdim etish;
- soliq tizimidagi jarayonlarni avtomatlashtirish va raqamlashtirish;
- soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlik choralarini ishlab chiqish;

- baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish;
- ko’chmas mulk qiymatini daromad, harajat va qiyosiy yondashuvlar yordamida baholash;
- buxgalteriya balansi tuzilishi va uning tarkibini o’zlashtirish;
- moliyaviy hisobotning halqaro standartlarining kontseptual asoslarini baholash;
- O’zbekiston Respublikasida korxonalarda moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishning zamonaviy tendensiyalarini ishlab chiqish;
- O’zbekiston Respublikasida bojxona ishini tashkil etish va yuritishga qo’yilgan talablarga rioxha etish;
- bojxona ko’rigi va uni amalga oshirishning zamonoviy usullaridan foydalanish;
- O’zbekiston Respublikasi bojxona organlarida bojxonaga oid xalqaro huquq normalari, ularni qo’llash uslublaridan foydalanish;
- davlat moliyasinini boshqarishning amaldagi holatini baholash;
- moliyaviy qarorlar qabul qilishda moliyaviy ma’lumotlarni tahlil qilish, qayta ishlash, tayyorlash;
- moliyani boshqarishda zamonaviy moliyaviy texnologiyalardan foydalanish;
- sug’urta xizmatlarining va sug’urta ob’ektlarining risklarini aniqlash va zararlilik darajasini kamaytish usullarini keng tadbiq etish;
- sug’urtaning bozorida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar faoliyati tahlil qilish;
- jahon bozorida tovar va xizmatlar harakatining xususiyatlarini ochib berish;
- xalqaro va ichki bozor segmentatsiyasini, baholarni shakllanishi va iste’molchilarga servis xizmat ko’rsatishni strategiyalarini, tovar va xizmatlar sotilishini kengaytirish imkoniyatlari va uni raqobatga bardosh bera olish strategiya usul va yo’llarini o’zlashtirish;
- O’zbekistonning jahon xo’jaligiga integratsiyalashuvi va xalqaro tashkilotlar bilan iqtisodiy hamkorligidagi o’rnini yoritib berish;
- korxonada marketing faoliyatini boshqarishni tashkil etish;
- xalqaro marketingning nazariy asoslarini o’zlashtirish;
- raqamlı marketing texnologiyalaridan foydalanish;
- savdo faliyatini samaradorligini tahlil qila olish;
- savdo korxonalari iste’mol tovarlari bozorida tovar aylanmasini o’rganish;
- savdo korxonalarini nomoddiy aktivlarini belgilash;
- savdo korxonalarini vositalaridan amaliyotda foydalanish;
- savdo korxonalarini daromadlarini hisoblash;
- korporativ tuzilmalar ishlashining mexanizmlari va ularning xususiyatlarini ochib berish;
- korporativ boshqaruvinning xalqaro standartlarini o’zlashtirish;
- Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) ning korporativ boshqaruvin rivojlantirishdagi rolini ochib berish;
- risk menejmenti, PR menejment loyihibalarini boshqarish;
- sifat menejmenti samaradorligini oshirish muammolarini yechimini

topish;

- taym menejment, sifat boshqaruvi, sifat menejmenti tizimi samaradorligini oshirish;
- bank xizmatlari markazlari va banklarning tashkiliy tuzulmasini boshqarishdagi kamchiliklarni bartaraf etish;
- xalqaro bank ishida foydalaniladigan bank operatsiyalari va xizmatlarini milliy bank tizimiga joriy etishdagi mavjud muammolarni yechimini topish;
- mamlakat bo'yicha aholini bank tizimiga va bank xizmatlariga bo'lgan talabni to'liq qondirish yo'llarini o'rganish;
- bank faoliyatini va bank operatsiyalarini avtomatlashtirish va raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratish orqali bank tizimida ma'lumotlarga ishlov berish bilan mavjud bo'lgan ayrim kamchilik va muammolarni bartaraf etish;
- raqamli iqtisodiyot indikatorlarini tahlil etish;
- iqtisodiyot tarmoqlarining raqamli transformatsiyalash;
- sun'iy intellektning ijobiy hamda salbiy oqibatlari, ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
- elektron raqamli imzo, raqamli iqtisodiyotda axborotlarni butligini ta'minlash va himoyalash;
- raqamli transformatsiyaning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tahlil qilish;
- axborot xavfsizligida elektron raqamli imzodan foydalanish;
- Internet tarmog'i orqali bo'ladigan hujumdan himoyalanish;
- turli mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturlariini tahlil qilish;
- suniy intellektni joriy etish, davlat-xususiy sheriklik shartlarida suniy intellektni rivojlantirish, eng istiqbolli va strategik muhim loyihalarni amalga oshirish, suniy intellektni rivojlantirish uchun platformalar tashkil etish, startaplarni ishlab chiqish va amalga oshirish usullaridan foydalanish;
- rasmiy statistikaning ustuvor yo'nalishlari va ushbu tizimni isloq qilishning normativ-huquqiy asoslarini o'rgatish;
- statistikada variatsion me'yorlarни qo'llash;
- statistika tizim faoliyatiga sifatni boshqarishning ilg'or tizimlarini (GSIM, GSBPM, GAMSO, va NQAF) to'liq joriy etish;
- statistik hisobotlarni tahlil qilishda, Statsoft (STATISTICA), COMSOL, Microsoft Excel, SAS (Statistical Analysis Software), SPSS, Stata, XL Stat, dasturlaridan foydalanish;
- statistik jarayonlarni modellashtirish **ko'nikma va malakalariga** ega bo'lishi lozim.
- savdo korxonalarini savdo faoliyatini olib borishning an'anaviy va elektron vositalarini birlashtirish darajasiga ko'ra tasniflash;
- raqamli transformatsiya paytida kompaniyaning marketing imkoniyatlarini kengaytirish;
- xalqaro va mintaqaviy ta'minot zanjirlarida risklarni boshqarish;
- xalqaro va mintaqaviy logistikani tashkiliy rejalashtirish va faoliyatini raqamlashtirish;

- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning byudjet daromadlari tarkibidagi ulushini tahlil qilish;
 - soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb muammolari bo‘yicha to‘g‘ri xulosalarni shakllantirish va tegishli qarorlar qabul qilish;
 - mulkningadolatli qiymatini baholash kontseptsiyasini amalga oshirish;
 - iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi kontseptsiyasining zaruriyligi va tashkil qilish asoslarini ёритиб бериш;
 - O‘zbekiston Respublikasida bojxona auditining mazmun-mohiyatini yoritib berish;
 - O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy bojxonani tashkil etishda bojxona ma’muriyatçiliginilgilg‘or innovatsion usullarini qo’llash, strategik rejalarashtirish va bojxona tartib taomillarini soddalashtirishning yangi tamoyillarini tahlil etish va baholash;
 - davlat moliyaviy resurlarini shakllantirish va ulardan natijali foydalanish;
 - aksiyadorlik jamiyatlarini moliyaviy strategiyasini ishlab chiqish;
 - moliyaviy bozorlarda raqobat sharoitini yarata olish;
 - sug‘urta masalalarni mustaqil empirik tadqiqot qilish va tanqidiy baholash;
 - milliy iqtisodiyotning strukturasini o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib berish;
 - raqamli marketingingda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish va baholash;
 - bozor segmentatsiyasi vositasida ehtiyojlar tahlilini amalga oshirish;
 - jahon bozorida tovarlarni yetkazib berish, saqlash, bozorga kiritish, resurslardan unumli foydalanish bo‘yicha aniq holatlarda strategik qaror qabul qilish;
 - xalqaro bozorda bahoni shakllantirishni tavsiflash
 - xalqaro standartlarp asosida milliy korporativ boshqaruv tizimi bo‘yicha qonunchilik bazasini takomillashtirish;
 - korporativ boshqaruvning zamonavaiy trendlarini o‘zlashtirish
 - kompaniyada qiymat menejmentini joriy etish;
 - operatsion menejmentda jarayonlarni boshqarish;
 - milliy bank tizimida transformatsiya jarayonlari va ularning ahamiyatini ochib berish;
 - bank ishida mijozlarning kredit qobiliyatini aniqlash va boshqarishning ilg‘or tizimlarini (Skoring, PARSER, CAMPARI, 5S va boshqa xalqaro) joriy etishdagi kamchiliklarni tahlil etish;
 - raqamli texnologiyalar asosida ekonometrik tahlillar olib borish;
 - ma’lumotlar bazasining relyatsion, ierarxik va semantik modellari asosida ob’ektlarning ma’lumotlar bazasini loyihalash;
 - raqamli texnologiyalar asosida ekonometrik tahlillar olib borish;
 - yetakchi IT-kompaniyalarni faoliyatini baholash;
 - statistikaning rivojlanish tendentsiyalari bo‘yicha, statistik hisobotlarga oid to‘g‘ri xulosalarni shakllantirish va tegishli qarorlar qabul qilish;
 - statistika tizim faoliyatiga sifatni boshqarishning ilg‘or tizimlarini (GSIM, GSBPM, GAMSO, va NQAF) to‘liq joriy etish;

- raqamli texnologiyalarni amalga oshirish sharoitida statistik qarorlar qabul qilish;
- statistikada moliyada ekonometrik modellardan foydalanish, baholash va tegishli qarorlar qabul qilish;
- statistik masalalarni mustaqil empirik tadqiqot qilish va tanqidiy baholash kabi **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

IV. Yakuniy qoida

Mazkur malaka talablari ijtimoiy-iqtisodiy sohaning ustuvor yo‘nalishlari va vazifalaridan kelib chiqib takomillashtirib boriladi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori

2023 yil “___”



K.A.Sharipov.

